

7. Elmurzaevich, M. O. (2023, November). IMPROVING DIGITAL COMPETENCE USING CLOUD TECHNOLOGIES. In E Conference World (No. 2, pp. 148-153).

8. Abduraxmanova Shaxnoza Abduxakimovna, & Saydivosilov Saidiabzal Anvar ugli. (2023). The need to develop the digital technology skills of future computer science teachers in Uzbekistan. *World Bulletin of Management and Law*, 23, 64-67. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/2874>

9. Elmurzayevich, M. O. (2023). IMPROVING DIGITAL COMPETENCE THROUGH CLOUD TECHNOLOGIES. *World Bulletin of Management and Law*, 23, 68-70.

10. Abduxakimovna, A. S. (2021). Use of multimedia technologies in the development of intellectual skills of students of pedagogical higher education institutions. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 8(1), 1483-1488.

IJTIMOIIY TARMOQLARNING JAMIYAT HAYOTIGA TA’SIRI

Ochilova Zarnigor Inoyatovna

Shoumarova Oqila Tojiddin qizi

**Nizomiy nomidagi TDPU Axborot tizimlari va texnologiyalari yo‘nalishi
talabalari**

Hozirgi globallashuv jarayonida o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan bir paytda biz nafaqat aniq bir inson, balki butun jamiyat hayotiga o‘z ta’sirini o‘tkazib kelayotgan axborot texnologiyalarining ajoyib ixtirolaridan biri bo‘lmish ijtimoiy tarmoqlarni chetlab o‘tolmaymiz. Joriy vaqtda ijtimoiy tarmoqlar deyarli butun dunyoni qamrab olgan. Ayniqsa, yosh avlod juda ham ijtimoiy tarmoqlarni yaxshi ko‘radi. Kimga internetda o‘z rasmlarini qo‘yish, olis masofadagi do‘stlar va qarindoshlar bilan gaplashish, o‘yinlar o‘ynash, musiqa tinglash va so‘nggi yangiliklardan xabardor bo‘lish, statuslarni tinmay o‘zgartirish yoqmaydi deysiz? Shu sababdan bugungi

kunda eng faol ijtimoiy tarmoqlar to'pligini foydalanuvchilariga ko'ra tahlil qilib ko'ramiz. Facebook – 750 million, Twitter – 200 million, Qzone – 480 million, Odnoklassniki.ru – 100 million, V kontakte – 135 million va hokazo.

Yuqoridagi tahlildan, insoniyat qanchalik ijtimoiy tarmoqlar ichiga kirib ketayotganligini ko'rish mumkinki. Tabiiyki, shu o'rinda savol tug'iladi, bu yaxshimi yoki yo'q? Albatta, ko'pchilik bu tarmoqlarni ma'qullaydi va unga ijobiy baho beradi. Chunki, hozir ijtimoiy tarmoqlar bo'sh vaqtni o'tkazishning eng yaxshi vositasi hisoblanadi. Endi esa, keling, ijtimoiy tarmoqlarnig bizning hayotimizga, dunyoqarashimizga, ongimizga va sog'lig'imizga qanday ta'sir etishi haqida fikr yuritaylik. Internetning zo'r berib rivojlanishi bilan odamzod borgan sari me'yorni unutib, uning girdobiga bexosdan tortilmoqda. Axir biz bir muhim narsani esdan chiqarmasligimiz darkor: real hayot boshqa, virtual hayot boshqa. Biz kundalik hayotda odamlar bilan jonli muloqotda bo'lamiz, jonli fikr almashinamiz va o'zimizga kerakli bo'lgan xulosalarni chiqaramiz. Virtual hayot esa insonni tamomila dunyoqarashi va ongini o'zgartirib yuborishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarsiz hayotimizni tasavvur qilish qiyin. Har kuni ertalab o'rnimizdan turganimizda ko'p hollarda albatta telefonimizni qo'limizga olamiz va telegram, instagram yoki facebook ga kiramiz. Bulardan foydalanishning ko'pgina avfzalliklari bor. Biz bu ijtimoiy tarmoqlar orqali ko'pgina kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishimiz, yangi do'stlar orttirishimiz, yangiliklardan xabardor bo'lishimiz, yangi narsalar o'rganishimiz, do'stlarimiz bilan suxbatlashishimiz mumkin. Hattoki hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali insonlar o'z bizneslarini rivojlantirish imkoniyatiga ega. Ular o'z maxsulotlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali reklama qilib brendlarini tanitish, o'zlari uchun xaridorlar avditoriyasini yig'ish va yangi maxsulotlarini xaridorlarga e'lon qilishlari mumkin. Bu albatta ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning biz uchun avfzalliklari.

Ammo bilamizki har bir yaxshi narsaning yomon tomoni bo'lganidek ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning ham o'ziga yarasha yomon tomonlari bor. Ko'pincha biz ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni me'yoridan oshirib yuboramiz va ko'p vaqimizni yo'qotib qo'yamiz. Misol uchun Tiktok ijtimoiy tarmog'ini olaylik. Ko'p

hollarda Tiktok ga bemaqsad kiramiz va juda ko'p vaqtimizni bu ijtimoiy tarmoqda shunchaki be'mani videolarni tomosha qilish bilan o'tqazamiz. Vaholanki, bizda boshqa muhim vazifalar yetarlicha bo'ladi va biz bu vazifalarni yaxshi bajara olmaymiz yoki umuman bajarmaymiz. Bu albatta juda yomon.

Ijtimoiy tarmoqlar biz uchun juda muhim bo'lishiga qaramasdan ulardan har doim ma'lum bir maqsad bilan foydalanish kerak, aks holda biz shunchaki ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo'lib qolishimiz mumkin.

Daniya Texnik Universiteti tadqiqot o'tkazdi, natijada ijtimoiy tarmoqlar e'tibor jarayonini o'zgartirmoqda miya va inhibitsiyon nazorati uchun mas'ul bo'lgan kulrang moddalarni kamaytirish,, xotira, nutq va hissiy idrok (Lorenz-Spreen va boshq., 2019). O'zgarishlar diqqat etishmasligi giperaktivligi buzilgan odamning miyasiga o'xshaydi (DEHB) - e'tiborsizlik, giperaktiv xatti-harakatlar va impulsivlik bilan tavsiflangan neyrorivojlanish holati. O'rtacha, biz daqiqada taxminan 15 marta miltillaymiz. Elektronikaga ta'sir qilganda, bu raqam yarmiga qisqartiriladi. Bizning asab tizimimiz ko'rishimizni tartibga soladi. Miya vizual ma'lumotlarni qayta ishlaganda, u atrof-muhitdagi tasvirlarga e'tibor qaratishimizga yordam beradi. Ijtimoiy tarmoqlarda o'tkaziladigan soatlar soni ortib borayotganligi sababli (ijtimoiy tarmoq saytlari orqali e'lon qilingan vizual kontent bilan birga) natijada ko'rishning xiralashishi, ko'zlar yonishi va ko'zni zo'riqishidan bosh og'rig'i paydo bo'ladi.

Tadqiqotlarga ko'ra butun dunyoda 3 milliard kishi, sayyorada 40 foiz inson ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Izlanishlar bir kunda o'rtacha ikki soat ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o'tkazishimizni taqozo qilyapti. Ijtimoiy tarmoqlarning kundalik hayotimizdagi o'rnini inkor qilib bo'lmaydi. Ammo tahlikali jihatlariga ham ko'z yumolmaymizki, ijtimoiy tarmoqlarda nafaqat vaqtimiz, balki ruhiy sog'ligimizni ham qurbon beryapmiz. Ijtimoiy tarmoqlar yangi hodisa bo'lgani uchun uning atrofida hali hanuz to'liq tadqiqotlar olib boorilmagan.

Internet- giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, „ommaviy madaniyat“ kabi tahdidlar qanchadan-qancha oilalar, mamlakatlarda boshiga og'itr kulfatlar olib kelmoqda, g'arazli kuchlar hali ong-u tafakkuri to'la shakllanib

ulgurmagan o'z ota-onasi, Vataniga qarshi qo'yib ularning hayotiga zomin bo'lmoqdadir. Ijtimoiy tarmoqlardagi behuda ma'lumotlar natijasid urf-odatlarimiz, oila muqaddasligi, odob-axloq kabi qadriyatlar yemirilayotgani global tarmoqning misli ko'rinmagan zamonaviy xatarlari va ijtimoiy taqmoqlar sababidan yuzaga kelayotgan salbiy oqibatlar ham yo'q emas. Internetga mukkasidan ketish yoshlarda bir qancha ma'naviy illatlarni paydo qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Abduxakimovna, A. S., & Mikhailovich, Y. V. (2023). Application of digital learning technologies in vocational education. *образование наука и инновационные идеи в мире*, 22(1), 143-145.
2. Mamarajabov O.E. Benefits of Using Information Technology in the Education System //Vocational Education. Tashkent, 2019. No.1. P. 55-59
3. Ilyich, M. E. (2023, November). Aspects of improving the education system in technological universities. In E Conference World (No. 2, pp. 128-137).
4. Ilyich, M. E. (2023). Big data analysis in education. *World Bulletin of Management and Law*, 23, 74-76.
5. Kadirbergenovna, B. L. (2023, November). Distance education system as a modern method of training. In E Conference World (No. 2, pp. 97-102).
6. Kadirbergenovna, B. L. (2023, November). Methodology for organizing the process of distance education and its teaching. In E Conference World (No. 2, pp. 160-164).
7. Bahadir, U. S. (2023, November). Creating a control test in plickers. In E Conference World (No. 2, pp. 107-111).
8. Uroкова, S. B. (2020). Advantages and disadvantages of online education. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 09 (89),34-37.
9. Bakiyeva, Z. R. (2022). Teaching computer animation to students through an electronic learning platform. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(6), 26-28.

10. Бакиева, З. Р., & Мухаммадхўжаев, Б. Б. (2018). Возможности информационно-коммуникационных технологий в формировании личности учащихся.

BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYASI ORQALI TA'LIM TIZIMINI TASHKILLASHTIRISH

Allayarova Husnora Mirzohidovna

Amonova Aziza Akmal qizi

Axborot tizimlari va texnologiyalari 2-kurs talabalari

Internet orqali onlayn ta'limni tashkillashtirish uchun bugungi kunda bir qator texnologiyalardan foydalaniladi. Bulutli hisoblash texnologiyasi internet orqali ta'lim tizimini tashkillashtirishning eng samarali usuli hisoblanadi. Bulutli texnologiya taqsimlangan ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash tizimlaridan tashkil topib, bir vaqtda juda ko'plab o'quv materiallaridan tashkil topgan onlayn ma'sofaviy ta'lim tizimini tashkillashtirish, butun ta'lim faoliyatini yagona platformada tashkillashtirish imkonini beradi.

Bulutli ta'lim xizmatlarini tashkillashtirish boshqa usullarga nisbatan quyidagi ustunliklarga ega:

- Ulanishning qulayligi va amalga oshirilishi soddaliligi;
- Platforma narxining arzonligi va universalligi;
- Xavfsizlikning yuqoriligi;
- Ishonchliligi;
- Tizimning tarmoq platformasiga oson moslashuvchanligi.

Shunday qilib, bulutli texnologiyalar — bu ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari bo'lib, unda kompyuter resurslari Internet foydalanuvchisiga onlayn xizmat sifatida taqdim etiladi.

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish va isloh qilish zaruratiga duch kelmoqda. Ya'ni, ta'lim jarayonida zamonaviy odam bilim va ko'nikmalarni to'plashi kerak emas, balki mustaqil ravishda, boshqa odamlar bilan